

ISSN: 2181-1040
DOI: 10.26739/2181-1040
tadqiqot.uz/renaissance



JCAR

**JOURNAL OF CENTRAL
ASIAN RENAISSANCE**



VOLUME 7 | **2026**
ISSUE 1

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖИЛД 7, СОН 1

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
ТОМ 7, НОМЕР 1

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE
VOLUME 7, ISSUE 1



Бош муҳаррир:

МАДАЕВА ШАҲНОЗА ОМОНУЛЛАЕВНА

фалсафа фанлари доктори, Мирзо Улуғбек номидаги
Ўзбекистон Миллий университети профессори (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

ЮСУПОВА ДИЛДОРА ДИЛШАТОВНА

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (DSc),
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
доценти (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

ХОЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (DSc),
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
доценти (Ўзбекистон)

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕСАНСИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ВА ИЖТИМОЙ-ФАЛСАФИЙ ЖУРНАЛИ ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ

МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ўзбекистон Миллий университети ректори,
профессор (Ўзбекистон)

ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Ўзбекистон Фанлар академияси, Ўзбекистон Бадий
академияси академиги, санъатшунослик фанлари
доктори, профессор (Ўзбекистон)

МАРИАННА КАМП РУТЦ

Индиана университети ЕвроОсиё тадқиқотлари
маркази профессори, тарих фанлари доктори (АҚШ)

ЖЎРАЕВ НАРЗУЛЛА ҚОСИМОВИЧ

ИСФТ профессори, сиёсий фанлар доктори (Ўзбекистон)

ИСЛОМОВ ЗОҲИДЖОН МАҲМУДОВИЧ

Ўзбекистон Халқаро ислом академияси профессори,
филология фанлари доктори (Ўзбекистон)

КЛЭР РООСИЕН

Йел университети, фалсафа доктори (PhD) (АҚШ)

АНТонио АЛОНСО МАРКОС

Сан Пабло номидаги CEU университети
профессори (Испания)

ШИРИНОВА РАИМА ҲАКИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий
университети профессори, филология фанлари
доктори, (Ўзбекистон)

КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

Хофстра университети профессори,
тарих фанлари доктори (АҚШ)

УСМАНОВ ИБРОҲИМ

Ўзбекистон Фанлар академияси Абу Райҳон Беруний
Номидаги Шарқшунослик институти катта илмий ходими,
тарих фанлари номзоди, доцент (Ўзбекистон)

АҲМЕД МОУССА АБДДАЛЛА СЕИФЕЛДИН

Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси,
PhD (Миср Араб Республикаси)

МОҲАМЕД АЛИ АБДЕЛВАҲЕД АВАД

Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси,
PhD (Миср Араб Республикаси)

ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ

Ал Форобий номидаги Қозоғистон Миллий университети
профессори, фалсафа фанлари доктори (Қозоғистон)

ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХЎЖАМҚУЛОВНА

Анджон давлат университети профессори
фалсафа фанлари доктори (Ўзбекистон)

МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

Наманган давлат техника университети профессори,
фалсафа фанлари доктори (Ўзбекистон)

ҲЕЛАЛ АБДЕЛПРАЗЕК САДЕК АБДЕЛПРАЗЕК

Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси,
PhD (Миср Араб Республикаси)

ФАЙЗИХОДЖАЕВА ДИЛБАР ИРГАШЕВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
профессор в.б., фалсафа фанлари доктори (Dcs) (Ўзбекистон)

САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

Навий давлат педагогика институти профессори,
фалсафа фанлари доктори (Ўзбекистон)

ДЖЎРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети,
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

Наманган давлат университети профессор в.б, социология
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) (Ўзбекистон)

AMIROV AZAMAT ODIL O'G'LI

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi
O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha
Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz direktori o'rinbosari
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

ОДИНАЕВА ЗЕБИНИСО ИБРОХИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
доценти, фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети,
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

РЎЗИБОЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
PhD докторанти (Ўзбекистон)

Дизайн—саҳифаловчи: Х.Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Главный редактор:

МАДАЕВА ШАХНОЗА АМАНУЛЛАЕВНА

Профессор Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека,
доктор философских наук (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

ЮСУПОВА ДИЛЬДОРА ДИЛЬШАТОВНА

Доцент Национального университета Узбекистана имени
Мирзо Улугбека, доктор философских наук (DSc)
по философии (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

ХОДЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

Доцент Национального университета Узбекистана имени
Мирзо Улугбека доктор философских наук (DSc)
по философии (Узбекистан)

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКОГО И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОГО ЖУРНАЛА РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ректор Национального университета
Узбекистана, профессор (Узбекистан)

ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Академик Академии наук Узбекистана,
Академии искусств Узбекистана, доктор
искусствоведения, профессор (Узбекистан)

МАРИАННА КАМП РУТЦ

Профессор Центра евроазиатских исследований
Университета Индианы, доктор исторических наук (США)

ДЖУРАЕВ НАРЗУЛЛА КАСИМОВИЧ

Профессор ИСФТ, доктор политических наук (Узбекистан)

ИСЛОМОВ ЗОХИДЖОН МАХМУДОВИЧ

Профессор Международной исламской академии
Узбекистана, доктор филологических наук (Узбекистан)

КЛЕР РОСИЕН

Йельский университет, доктор философии PhD (США)

АНТонио АЛОНСО МАРКОС

Профессор Университета CEU Сан-Пабло (Испания)

ШИРИНОВА РАИМА ХАКИМОВНА

Профессор Национального университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека,
доктор филологических наук (Узбекистан)

КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

Профессор Университета Хофстра,
доктор исторических наук (США)

УСМАНОВ ИБРОХИМ

Старший научный сотрудник Института востоковедения
имени Абу Райхана Беруни Академии наук Узбекистана,
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)

АХМЕД МУСА АБДЛАЛЛА СЕИФЕЛДИН

Международная академия исламских исследований
Узбекистана, PhD (Арабская Республика Египет)

МОХАМЕД АЛИ АБДЕЛЬВАХЕД АВАД

Международная академия исламских исследований
Узбекистана, PhD (Арабская Республика Египет)

ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ

Профессор Национального университета Казахстана
имени Аль-Фараби, доктор философских наук (Казахстан)

ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХОДЖАМКУЛОВНА

Профессор Андижанского государственного
университета, доктор философских наук (Узбекистан)

МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

Профессор Наманганского государственного технического
университета, доктор философских наук (Узбекистан)

ХЕЛАЛ АБДЕЛЬРАЗЕК САДЕК АБДЕЛЬРАЗЕК

Международная академия исламских исследований
Узбекистана, PhD (Арабская Республика Египет)

ФАЙЗИХОДЖАЕВА ДИЛЬБАР ИРГАШЕВНА

И.о. профессора Национального университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека,
доктор философских наук (DSc) (Узбекистан)

САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

Профессор Навоийского государственного педагогического
института, доктор философских наук (Узбекистан)

ЖУРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

Национальный университет Узбекистана имени
Мирзо Улугбека, доктор философских наук (PhD)
по философским наукам (Узбекистан)

МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

И.о. профессора Наманганский государственный университет,
доктор философских наук (PhD) по социологии (Узбекистан)

АМИРОВ АЗАМАТ ОДИЛ УГЛИ

заместитель директора координационно-методического
центра по вопросам новейшей истории Узбекистана при
Академии наук Республики Узбекистан, доктор
философских наук (PhD), доцент

ОДИНАЕВА ЗЕБИНСО ИБРОХИМОВНА

Доцент Национального университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека, доктор философских наук (PhD)
по философским наукам (Узбекистан)

ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Национальный университет Узбекистана имени
Мирзо Улугбека, доктор философских наук (PhD)
по философии (Узбекистан)

РЎЗИБОВЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРАД ОГЛИ

PhD докторант Национального университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

Дизайн-верстка: Х. Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Chief Editor:

MADAEVA SHAKHNOZA AMANULLAEVNA

Professor of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor:

YUSUPOVA DILDORA DILSHATOVNA

Docent of National University of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor:

KHOJIEV TUNIS NURKOSIMOVICH

Docent of National University of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD OF THE SCIENTIFIC-THEORETICAL AND SOCIO-PHILOSOPHICAL JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

MADJIDOV INOM URUSHEVICH

Rector NUUZ, Professor (Uzbekistan)

KHAKIMOV AKBAR ABDULLAEVICH

Academy of Sciences of Uzbekistan, Academician
of the Academy of Arts of Uzbekistan, Doctor of
Art History, Professor (Uzbekistan)

MARIANNE KAMP RUTZ

Professor of the Center for Eurasian Studies
at Indiana University, Doctor of History (USA)

DJURAEV NARZULLA KASIMOVICH

Professor of the ISFT Institute,
Doctor of Political Sciences (Uzbekistan)

ISLAMOV ZOHIDJON MAKHMUDOVICH

Professor of International Islamic Academy of Uzbekistan,
Doctor of Philological Sciences (Uzbekistan)

CLAIRE ROOSIEN

Yale University, PhD (USA)

ANTONIO ALONSO MARCOS

Professor of the University of CEU
named after San Pablo (Spain)

SHIRINOVA RAIMA KHAKIMOVNA

Vice-Rector for International Affairs of the National
University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

KARIMOV ELYOR ERIKOVICH

Professor of the Hofstra University,
Doctor of Historical Sciences (USA)

USMANOV IBROHIM

Associate Professor of Abu Rayhon Beruniy Institute
of Oriental Studies, Academy of Sciences of Uzbekistan,
Candidate of Historical Sciences (Uzbekistan)

AHMED MOUSSA ABDALLA SEIFELDIN

International Islamic Academy of Uzbekistan, PhD (Arab Republic of
Egypt)

MOHAMED ALI ABDELVAHED AWAD

International Islamic Academy of Uzbekistan,
PhD (Arab Republic of Egypt)

GABITOV TURSUN KHAFIZOVICH

Professor of the Al-Farabi Kazakh National University,
Doctor of Philosophical Sciences (Kazakhstan)

YULDASHEVA FARIDA KHOJAMKULOVNA

Professor of Andijan State University,
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

MIRZAKHMEDOV ABDIRASHID MAMASIDIKOVICH

Professor of the Namangan State Technical University,
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

HELAL ABDELRAZEK SADEK ABDELRAZEK

International Islamic Academy of Uzbekistan,
PhD (Arab Republic of Egypt)

FAYZIKHODJAYEVA DILBAR IRGASHEVNA

Acting Professor of the National University of
Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

SAFAROVA NIGORA OLIMOVNA

Professor of the Navai State Pedagogical Institute,
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

JURAEVA NIGORA AVAZOVNA

Docent of the National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek, (PhD) (Uzbekistan)

MIRZAKHMEDOV KHURSHID ABDIRASHIDOVICH

Acting Professor of Namangan State University,
Doctor of Philosophy (PhD) on Sociological Sciences
(Uzbekistan)

AMIROV AZAMAT ODIL UGLI

Deputy Director of the Coordination and Methodological Center for
the Latest History of Uzbekistan under the Academy of Sciences
of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in
Philosophical Sciences, Docent

ODINAYEVA ZEBINISO IBROKHIMOVNA

Docent of National University of Uzbekistan named
after Mirzo Ulugbek, Doctor of Philosophy (PhD),
in Philosophical Sciences (Uzbekistan)

SHUKUROV AKMAL SHAROFVICH

The National University of Uzbekistan named
after Mirzo Ulugbek, PhD (Uzbekistan)

RUZIBOEV DOSTONBEK DILMUROD UGLI

doctoral student of the National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek, (Uzbekistan)

Design-pagemaker: Kh.Mirzakhmedov

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Norov Toji Omonovich ALISHER NAVOIY FALSAFASIDA IQTISODIY MASALALARINING GUMANISTIK TALQINI.....	7
2. Нилуфар Абдурахмонова Зайнобиддин кизи, Шамсиева Гульшода Аслиддин кизи АНАЛИЗ КОНТЕКСТНО-ЗАВИСИМЫХ ЕДИНИЦ В МАШИННОМ ПЕРЕВОДЕ НА ОСНОВЕ ПАРАЛЛЕЛЬНОГО КОРПУСА (НА ПРИМЕРЕ ПЛАТФОРМЫ PARATRANSLATOR.UZ).....	14
3. Tangirov Nizom Abduraxmonovich, Kadirova Guzal Nuritdinovna OLIM MAMAJON RAHMONOVICH RAHMONOVNING O‘ZBEK TEATR SAN’ATI TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI.....	21
4. Амиров Азамат Одил угли СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКОЕ И КУЛЬТУРНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ДВИЖЕНИЯ ДЖАДИДИЗМА.....	26
5. Ro‘ziboyev Dostonbek Dilmurod o‘g‘li SOVET ORIYENTALIZMI VA TARIXIY XOTIRANING MAFKURAVIY REKONSTRUKSIYASI: SOVET KINOSIDA ALISHER NAVOIY OBRAZINING TALQINI...33	33
6. Israfilov Doston Omonulla o‘g‘li PRINCIPLES FOR DETERMINING INTERLEVEL GRAMMATICAL MINIMUMS IN TEACHING UZBEK TO ENGLISH SPEAKERS.....	41
7. Xo‘jaqulova Munira Islom qizi FALSAFA VA DIN INSON MA’NAVIYATINING ASOSI.....	48
8. Bekchanova Manzura Shuxratovna IGNATS GOLDZHERNING “SAHIHI BUXORIY” ASARIGA OID TADQIQOTI.....	60
9. Archabayeva Nargiza Nasimovna LINGVOTEJAMKORLIKNING NUTQIY AKTLAR NAZARIYASI DOIRASIDA PRAGMATIK IFODALANISHI.....	66


ISSN: 2181-1040

www.tadqiqot.uz

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ**ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE**

Norov Toji Omonovich
TDIU “Falsafa” kafedrası
professori, falsafa fanlari doktori
E-mail: tajinorov@gmail.com

**ALISHER NAVOIY FALSAFASIDA IQTISODIY MASALALARINING GUMANISTIK
TALQINI**

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21007762>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada buyuk mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiyning falsafiy merosida iqtisodiy munosabatlarning insonparvarlik tamoyillari asosida talqin qilinishi tahlil qilingan. Tadqiqotda Navoiyning iqtisodiy qarashlari uning ijtimoiy adolat, inson qadri, xalq farovonligi va davlat boshqaruvi haqidagi fikrlari bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganiladi. Muallif Navoiy iqtisodiy masalalarni mustaqil iqtisodiy nazariya sifatida emas, balki inson manfaatlariga xizmat qiluvchi axloqiy-falsafiy tizimning tarkibiy qismi sifatida talqin qilganligini asoslab beradi. Shu nuqtayi nazardan soliq siyosati, bojxona tizimi, bozor munosabatlari, savdo-sotiq madaniyati, dehqonchilik, mehnat, xayriya va vaqf instituti kabi masalalar tahlil qilingan.

Maqolada mutafakkirning «Mahbub ul-qulub», «Munshaot», «Vaqfiya», «Hayrat ul-abror» va «Saddi Iskandariy» asarlaridagi iqtisodiy g‘oyalar manbashunoslik va ijtimoiy-falsafiy tahlil usullari asosida o‘rganilgan. Xususan, Navoiyning bozorlarda narx-navo ustidan muntazam nazorat o‘rnatish, soliq yig‘ish jarayonida adolatni ta‘minlash, savdogarlar huquqlarini himoya qilish, tashqi savdoni rag‘batlantirish, mansabdor shaxslarning tamagirliigi va korrupsiyasiga qarshi kurashish haqidagi fikrlari ochib berilgan. Shuningdek, uning halol mehnat, dehqonchilik va tadbirkorlikka bergan yuqori bahosi iqtisodiy taraqqiyotning ma‘naviy asoslari sifatida baholanadi.

Shuningdek, maqolada Navoiyning xayriya va vaqfchilik faoliyatiga alohida e‘tibor qaratilgan. Mutafakkir tomonidan qurdirilgan madrasa, masjid, shifoxona, ko‘prik va boshqa ijtimoiy obyektlar insonparvar iqtisodiy siyosatning amaliy namunasi sifatida tahlil qilingan. «Vaqfiya» asari asosida vaqf mulklarini boshqarish, mablag‘larni taqsimlash, ijtimoiy himoya va ta‘lim sohasini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari o‘rganilgan. Bu esa Navoiyning iqtisodiy adolat va ijtimoiy mas‘uliyat haqidagi qarashlari zamonaviy ijtimoiy davlat konsepsiyasi bilan hamohang ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Adliya, iqtisod, soliq, bojxona, bozor, poyabzalchi, savdo, savdogar, xayriya, vaqf, muhtasib(soliq inspektori), tibbiyot, zakot, dehqonchilik.

Норов Тожи Омонович
профессор кафедры «Философия» ТГЭУ,
доктор философских наук
E-mail: tajinorov@gmail.com

**ГУМАНИСТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ВОПРОСОВ В
ФИЛОСОФИИ АЛИШЕРА НАВОИ**

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется интерпретация экономических отношений на основе гуманистических принципов в философском наследии великого мыслителя и государственного деятеля Алишера Навои. В исследовании экономические воззрения Навои изучаются в неразрывной связи с его идеями о социальной справедливости, человеческом достоинстве, благосостоянии народа и государственном управлении. Автор обосновывает, что Навои трактовал экономические вопросы не как самостоятельную экономическую теорию, а как составную часть нравственно-философской системы, служащей интересам человека. С этой точки зрения анализируются такие вопросы, как налоговая политика, таможенная система, рыночные отношения, культура торговли, земледелие, труд, благотворительность и институт вакфа.

В статье экономические идеи, изложенные в таких произведениях мыслителя, как “Махбуб уль-кулуб” (“Возлюбленный сердец”), “Муншаот” (“Письма”), “Вакфия” (“Посвящение”), “Хайрат уль-аброр” (“Смятение праведных”) и “Садди Искандари” (“Стена Искандера”), изучены на основе источниковедческого и социально-философского анализа. В частности, раскрываются идеи Навои об установлении постоянного контроля над ценами на рынках, обеспечении справедливости при сборе налогов, защите прав торговцев, поощрении внешней торговли, а также о борьбе с корыстолюбием и коррупцией должностных лиц. Кроме того, его высокая оценка честного труда, земледелия и предпринимательства рассматривается как духовная основа экономического развития.

Также в статье особое внимание уделяется благотворительной и вакфной деятельности Навои. Построенные мыслителем медресе, мечети, больницы, мосты и другие социальные объекты анализируются как практический пример гуманистической экономической политики. На основе произведения “Вакфия” изучаются механизмы управления вакфным имуществом, распределения средств, социальной защиты и поддержки сферы образования. Это показывает, что взгляды Навои на экономическую справедливость и социальную ответственность созвучны концепции современного социального государства.

Ключевые слова: Правосудие, хозяйство, налог, таможня, рынок, сапожник, торговля, купец, благотворительность, пожертвование, мухтасиб (налоговый инспектор), медицина, закят, земледелие.

Toji Omonovich Norov

Professor of the Department of Philosophy,
Doctor of Philosophical Sciences,
Tashkent State University of Economics (TSUE)
E-mail: tajinorov@gmail.com

HUMANISTIC INTERPRETATION OF ECONOMIC ISSUES IN ALISHER NAVOI'S PHILOSOPHY

ABSTRACT

This article analyzes the interpretation of economic relations based on humanistic principles in the philosophical heritage of the great thinker and statesman Alisher Navoi. In the study, Navoi's economic views are studied in inseparable connection with his ideas on social justice, human dignity, the welfare of the people, and state governance. The author substantiates that Navoi interpreted economic issues not as an independent economic theory, but as an integral part of a moral-philosophical system serving human interests. From this perspective, issues such as tax policy, the customs system, market relations, trade culture, agriculture, labor, charity, and the institution of waqf are analyzed.

In the article, the economic ideas set forth in the thinker's works such as “Mahbub ul-qulub” (“Beloved of Hearts”), “Munshaot” (“Letters”), “Vaqqfiya” (“Dedication”), “Hayrat ul-abror” (“Confusion of the Righteous”), and “Saddi Iskandari” (“Saddi Iskandari”), are studied through source studies and socio-philosophical analysis. In particular, Navoi's ideas on establishing constant

control over prices in markets, ensuring justice in tax collection, protecting the rights of merchants, encouraging foreign trade, and combating the greed and corruption of officials are revealed. Furthermore, his high assessment of honest labor, farming, and entrepreneurship is regarded as the spiritual foundation of economic development.

The article also pays special attention to Navoi's charitable and waqf activities. The madrasas, mosques, hospitals, bridges, and other social facilities built by the thinker are analyzed as a practical example of humanistic economic policy. Based on the work "Vaqfiya", the mechanisms for managing waqf property, distributing funds, social protection, and supporting the education sector are studied. This shows that Navoi's views on economic justice and social responsibility are in harmony with the concept of a modern social state.

Keywords: Justice, economy, tax, customs, market, cobbler, trade, merchant, charity, endowment, muhtasib (a tax inspector), medicine, zakat, farming.

Kirish va mavzuning dolzarbligi. Alisher Navoiy ijodi ko'p qirrali va keng qamrovli bo'lib, u qalam yuritmagani mavzu deyarli yo'q. Mutafakkir ijodining umumiy yaxlitligini ta'minlagan asosiy mavzu – insonparvarlik mavzusi bo'lib, inson, uning tabiati, shakllanishi, tarbiyasi va kamoloti, erki, huquqi va manfaatlar ustuvor masala qilib qo'yilgan. Uning falsafiy merosi deyarli, insonning ma'naviy kamoloti va moddiy farovonligi muammolariga qaratilgan. Shu sababli asarlarida ijtimoiy munosabatlar, iqtisodiyot bilan bog'liq masalalar tahlil qilingan. E'tiborli jihati shundaki, uning asarlarida bu kabi masalalar yuksak badiiy-falsafiy tarzda aks etgan bo'lsa, o'zi yirik davlat arbobi sifatidagi faoliyatida iqtisodiy masalalarda bevosita rahbarlik qilgan yoki temuriy hukmdorlarga ma'naviy rahnamo va maslahatchi sifatida amaliy faoliyat olib borgan. Navoiy merosi aksar hollarda uning badiiy mahorati, adabiyot tarixi, poetik talqin, manbashunoslik, matnshunoslik, adabiyotshunoslik, tilshunoslik kabi ixtisosliklar doirasida tadqiq qilib kelingan. Afsuski, ulug' mutafakkir merosidagi iqtisodiyotga oid qarashlar tadqiqotlar doirasidan chetga qolib kelmoqda. Ushbu maqolamizda Navoiyning ijodi va amaliy faoliyatidagi iqtisodiyot bilan bog'liq mavzularni qisman tadqiq qilishga harakat qildik.

Navoiy shaxsiga temuriy shahzodalar orasida juda katta hurmat va e'tibor bilan muomala qilinganligi tarixiy manbalar va Xusayn Boyqaroning unga munosabatlari unga bitilgan maktublar u haqidagi hujjatlarda aks etgan bo'lib, ularda mutafakkirning saltanatdagi maqomi aks etgan.

Mirxondning "Ravzat us-safo"sida, Husayn Boyqaro Alisher Navoiy bilan yozishmalarda unga yo'llagan maktublarda ul janobning laqablarini bunday deb yozar edilar: Hidoyat egasi, sharaf va hurmatning qaytish joyi, dinu davlat arboblarning sarasi, mulku millat egalarning yetakchisi, xayru ehsonlarni ta'sis etuvchi, xayru ehson muassasalariga ravnaq beruvchi, saltanat ustuni, podshohlarni qo'lidan yetaklovchi, xoqon davlatining umidi, sulton hazratlarining yaqin do'sti, haqiqat va din nizomi amir Alisher" [13:326] degan ma'lumotlar bor.

Bobur o'zining "Boburnoma"sida Husayn Boyqaro hukmdorligi davrida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar ta'rifiga to'xtalar ekan, hukmdorning amalga oshirgan ishlarida uning yonida turgan sodiq kishilaridan eng mashhuri bu serg'ayrat, obro'li va shuhratli Alisher Navoiy bo'lganligini qayd etadi. Uning ta'kidlashicha, Husayn Boyqaro davlatchiligini rivojlantirishda undagi tartib va tinchlikning saqlanishi, hayotning farovonlashuvida "Alisherbekcha tarbiya beruvchi va madadkor kishi hech bo'lgan emas. Hirot kishilaridan biror kishi biror narsa ixtiro qilsa, uni Alisher nomiga qo'yar edi, chunki, Navoiyning o'zi juda ko'p yangiliklar yaratar edi"[14:],- deydi.

Masalan, Navoiyning mashhur shaxslar va temuriy shahzodalar, xususan, Sulton Husayn Boyqaro bilan olib borgan yozishmalaridan tashkil topgan "Munshaot" asarida quyidagi mazmundagi ko'rsatmalarini ko'ramiz: "Muhtasib haftada ikki qatla bozor ahlining narxlaridin vuquf topsalar" [1:188]. Ya'ni, muhtasib, haftada bozorlardagi ahvol, xususan, narx-navolardan voqif bo'lislari lozim deyiladi.

Navoiy huquqiy munosabatlarni tartibga solish, xalq va davlatning iqtisodiy hayotini farovonlik sari olib borish masalalarida hukm va mas'ullarga yo'riqnomalar berganligi manbalardan ma'lum. Xususan, "Munshaot" da: "Zakotni shar' va hukm yo'suni bila zakotchilar alardin mustaxlas qilsalar.

Zakotchilar ishidan tavochi moh-bamoh, balki hafta-bahafta vuquf topib, arzg'a yetkursalar. Juzviy jarima qilg'anini kulliy siyosat qililsa, bok yo'qdur, to bu ovoza olam mamolikiga yoyilsa, tujjorning ruju'i ko'prak bo'lsa"[1:191].

Maktubning mazmuni quyidagicha: Navoiy chetdan kelgan savdogarlardan soliq olmaslik tarafdori. Ular ko'proq bu yerga kelib savdo qilishga intilsin. Agar zakotchi kichik bir xatoga yo'l qo'ysa ham, unga katta jazo berilsin, toki buning ovozasini butun olamga yoyilsin-da, xorijiy savdogarlarning bu mamlakatga intilishi ko'payaversin. Bu nasihatlarini Navoiyning buyuk siyosatshunos, iqtisodchi ekanligini bildiradi. Davlat va iqtisodiyot rivojida esa nazoratning, qonunchilikning ahamiyatini ham to'g'ri ko'rsatadi.

Navoiyning "Mahbubul-qulub" asari, mutafakkirning umri davomida to'plagan bilim va tajribalarining xulosasi sifatida yaratilgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy masalalarga bag'ishlangan ilmiy-falsafiy asardir. Uning birinchi qismida 40 dan ziyod ijtimoiy guruhlariga ta'rif va tavsif beriladi. Jumladan, jamiyatni moddiy farovonligi xususida qimmatli fikrlar bayon qilingan. Bu masalalar xususida gapirar ekan Navoiy iqtisodiy hayot bilan bog'liq holatlarni achchiq tanqid ostiga oladi. Jamiyatdagi jirkanch illatlarni juda achchiq til bilan ochiq, xolis tanqid qiladi.

"Mahbubul-qulub"ning **"Tijorat ahli zikrida" faslida:** "Tijoratchilar sayyoh bo'ladilar, u butun iqlimlar va o'lkalar, shaharlardagi ahvoldan xabardor, u o'lkalar haqida ajoyib va g'aroyib xabarlar aytuvchi nodir kishilardir.

Ular foyda topish uchun, tog'larni toshlariyu sahro qumlarida tuya yetaklab, daryo va dengizlar mavjlari tug'yonida foyda-ziyon ko'radi. Halol rizq topish uchun uzoq masofalarni kezadi, jamiyatni botin va zohir jihatlariga ularga ayon.

Biri yuz bo'lgunicha boshida ming xil savdo, bo'zi katon bo'lgunicha ko'nglida necha xil orzu-havas. Ularni asl maqsadi faqat foyda topish bo'lib, shu yo'lda qattig' ranj chekadilar, savdo uchun dengizga kema suradilar, dur olish uchun nahangni og'ziga qadam uradilar, pul va molni ko'paytirish xayolida, o'z tanalari salomatligi uchun chopon kiymaydilar, laziz taomlarni hidlab, quruq (qotgan)non yeydilar, foydalari orqasidan ko'ngillari farog'at, taskin topmaydi, safardan maqsadi azizlar suhbatiga yetish emas, shar'iy zakot bo'yunda qoladi, molini aziz qilib o'zini xor qilsa, molini boj to'lashdan qochib yashirsa, unga zalolat yetadi, topganini faqat meros uchun yig'sa, faqat foydani ketidan quvsa, aslida bunday kishi xoja(boy) emas, balki bir xizmatkorga, mardikorga o'xshagan kishidir", deydi[2:34].

Asarning **"Shaharda olib sotquvchilar zikrida"** bobida, - "Shahar savdogari o'ziga foyda orttirish uchun musulmonlarni qaqshatadi. Elni ziyoni uning foydasi, u molni o'zi xohlagan darajada arzon olib qimmat sotmoq uning maqsadi (molni yengil deb olib, og'ir deb sotish illati, ya'ni tarozidan urish ham nazarda tutiladi). Oladigan moli katon (qimmatbaho mato) bo'lsa bo'z bahosida olib, bo'zni ming xil maqtoqlar bilan katondan qimmat bahoda sotadi. Sholni to'rqa (qimmatbaho mato) o'rnida o'tkazadi, bo'yran zarbaft o'rnida sotadi. Uning do'konida insofdan boshqa hamma matoh bor. Mol olarda faqat molni nuqsonini aytib yerga uradi. Musofir tijoratchilar uni nayrangini jabrini tortadi. Uning ikki yonida yolg'onchi, kazzob dallol xuddi xuddi zaifani qo'riqlovchi askarga o'xshab turadi", deydi[2:35].

Shu asarning **"Bozor kosiblari zikrida"** bobida: "Bozorning kosibu- savdogari Tangriga xoin va'daboz kazzobdir. Birga arzimaydigan narsani yuzga sotmoq ularga ming faxrdir, mingga tegarni yuzga olmoqqa ularda uyat yo'q. Rostlik bilan savdo qilish ular nazdida ziyonkorlik, va'daga vafo qilish esa ularga gunoh o'rnida. Foyda topish uchun o'g'li otasiga firibgarlik qiladi..." [2:35].

Asarning o'ttizinchi bobi "dehqonchilik zikrida" - "Dehqonki, dona sochar, yerni yormoq bila rizq yo'lin ochar. ...Olam ma'murlig'i alardin, olam ahli masrurlig'i alardin. Har qayon qilsalar harakat, elga ham qut yetkurur, ham barakat.

Navoiy dehqonni zaxmatli mehnatidan nafaqat insonlar balki, hayvonot, qushlar, qurt-qumursqalar, umuman butun jonzoqlar manfaatdor deb, dehqonni Odam Atoga o'xshatadi: Shoh molin berurdin ibo qilmasa va zabun sherikka jafu qilmasa, to donosi durri saodat bar bergay va tuxm sohib, anjumi uluvvi rif'at tergay. Mundoq dehqon Odanning farzandi, xalafidur, balki marzuqlar anga farzand va ul Odami safiydur" [2:34].

Unda dehqonni hosilini orqasidan juda ko‘p kasb kor egalari manfaatdor ekanligi, mehnat taqsimotining zamonaviy nazariyalaridan mukammalroq iqtisodiyot nazariyasining badiiy uslubda yaratgan.

Navoiy bu haqda “Munshaot” asarida shunday yozadi: “Yana ulkim, shahr dorug‘asidin beklar bila Xoja Falon andoq sohib vuquf bo‘lsalarkim, juzviy ishdin kulliy imdod tilamasalar” [1:189].

Shahar dorug‘asi ishidan doim voqif bo‘lish kerak, u arzimagan bahonalar bilan oz bir ishdan ko‘p tamagirlik qilmasin.

Dorug‘a - tuman, shahar yoki viloyat soqchilar boshlig‘i. Ular raiyatni (aholini) ro‘yxatga olish, askar to‘plash, soliqlarni yig‘ish va podshoh saroyiga yetkazish, mahalliy hukmdorlarni nazorat qilishi va boshqalar bilan shug‘ullangan [3:505].

Shariat asosida ijtimoiy tarkibni nazorat qilish va ma‘naviy buzuvchiliklarni oldini olishga mo‘ljallangan tarkib muhtasiblar deb atalgan. Ular bozorlardagi toshu tarozilardan urish va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olganlar, tartib saqlaganlar va o‘z vazifalaridan kelib chiqib jazolash ishlarini olib borganlar. Bu haqda “Mushaot” asarida quyidagi qaydlarni o‘qiymiz: “Muhtasib haftada ikki qatla bozor ahlining narxlaridin vuquf topsalar” [1:188].

Tarozi haqidan urish va ma‘naviy buzuvchiliklarni jazolash uchun jazoni ijro etish mas‘ul kishilar ihtisob ahli deb yuritilgan, ularga muhtasib boshchilik qilgan. Muhtasib beradigan jazo quyidagicha bo‘lgan: muhtasibning pahlavon bir navkari mujrim (aybdor)ni opichgan, ikkinchisi uning etagini ko‘tarib ishtonini tushirgan, uchinchisi dumbasiga rais aytgan miqdorda darra urgan. Shundan keyin mujrim o‘zini yig‘ishtirib olib, muhtasibga ta‘zim bilan tavba qilib, ko‘zini ochib qo‘yganligi uchun unga minnatdorchilik bildirgan. Tavba va minnatdorchilik muhim shartlardan bo‘lib, ado qilinmagan taqdirda jazoni davom ettirish ehtimoli bo‘lgan.

Sharq demokratiyasining ayrim o‘ziga xos xususiyatlari nazariy va amaliy asoslarini quyidagi misollarda ko‘rish mumkin. Shoh Bahrom obrazini talqin etish Navoiygacha ham Sharq adabiyotida mavjud bo‘lgan. Xususan, mashhur faylasuf “Siyosatnoma yoki siyar ul-mulk” asari bilan o‘chmas iz qoldirgan mutafakkir saljuqiylar podshohlari vaziri – Abu Ali Hasan ibn Ali Tusiy (Nizomulmul) (1018-1092) asarida ham Bahromni sarguzashti davlat boshqaruvi bilan bog‘liq hikoyatlar orqali yoritilgan. Uning “Siyosatnoma”sida, xususan, davlat boshqaruvida asosiy o‘rinda turuvchi vazir ekanligini uqtiradi. Lekin mulk boshlig‘i (podshoh) vazirlarini doimo tekshirib turishlarini ta‘kidlaydi. Nizomulmul “Siyosatnoma”da bu masalani ajoyib hikoyatlar orqali yoritadi.

Navoiyda Bahromning o‘z xatolarini anglashi bilan bog‘liq holat boshqacharoq tarzda tasvirlangan. “Hayrat ul-abror”da ham ajoyib tarzda tasvirlangan. “Hayrat ul-abror”ning 59-bobi “Bahromning may ta‘siridan baxtining ko‘zi uyquga ketib, mamlakatning binosi bu seldan yiqilgani va mazlumlar faryodidan uyg‘onib, buning chorasini ko‘rgani” [15:316-317] bayon qilinadi. Bu yerda gap, aynan soliqchilar elga o‘tkazgan sitamlardan, mamlakat fuqarolari boshqa mamlakatlarga ko‘chib ketganligi aytiladi.

Ulug‘ mutafakkir insonparvarlikning oliy ko‘rinishini o‘zining hayotiy faoliyatida, xayriya faoliyati orqali amaliy namuna ko‘rsatadi. O‘zi faqirona, so‘fiyona hayot kechirgan holda asosiy mol-mulkini vaqf sifatida xalq foydalanishiga bag‘ishlaydi. Oddiy xalq foydalanishi uchun ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘plab imoratlar qurdiradi. Boshqacha aytganda, u o‘z umri va butun faoliyatini insonparvarlikning yorqin ko‘rinishi bo‘lgan **xayriya** ishlariga bag‘ishladi.

Shu o‘rinda “Vaqf” so‘ziga ham qisqacha izoh berib o‘tish lozim deb o‘ylaymiz: “Vaqf” arabcha so‘z bo‘lib, din yo‘lida ajratilgan mol-mulkdir. Islom dini an‘anasida davlat va ayrim kishilar tomonidan diniy muassasalar, masjid madrasa va boshqalarga ajratilgan mol-mulk[4:79], [5:79].

Xondamirning qayd qilishicha, XV asrning 80-yillari davomida Alisher Navoiy o‘z mablag‘lari hisobidan Hirotda va mamlakatning boshqa shaharlarida bir necha madrasa, 40 ta rabot, 17 ta masjid, 10 xonaqoh, 9 ta hammom, 9 ko‘prik, 20 ga yaqin hovuz qurdirgan yoki ta‘mirlagan. Ular orasida Hirotdagi “Ixlosiya”, “Nizomiya” madrasalari, “Xolosiya” xonaqosi, “Shifoia” shifoxonasi, Qur‘on tilovot qiluvchilar uchun “Dorul-huffoz” binosi, Marvda “Xusraviya” madrasasi va Mashhadda “Dorul-huffoz” xayriya binosi va bir qator noyob ijtimoiy binolar qurdirgan bo‘lib, ular hozirgacha betakror me‘morchilik inshooti sifatida ham tarixiy qimmatga ega [6:233-239].

“Vaqfiya”da mol-mulklar, yerlarning, taqsimoti va nazorati tizimini quyidagicha tavsiflash mumkin:

- vaqf qilingan yerlar va mulklar;
- vaqf qilingan binolar, inshootlar;
- ularni idora qilish uchun belgilangan vazifalar;
- vazifalar uchun tayin qilingan maoshlar;
- vaqflar taomili uchun aniqlangan ashyolar;
- bino va yodgorliklar ta’miri;
- xalq uchun, xususan kambag‘allar uchun o‘tkaziladigan xayriya marosimlar va ularga tortiladigan taomlar miqdori;
- mudarris va talabalar uchun joriy qilingan qoidalar;
- vaqflarni saqlash, idora etish va nazorat qilishning qoida va shartlari;
- vaqf shart va qoidalarining daxlsizligi [7:404-404].

Navoiyning vaqf qildirgan yerlarining o‘lchov miqdori 460 jeribga (Jerib- yer o‘lchovi birligi, taxm 1 tanob yer. Jeribni, shuningdek 1 jerib don ekish mumkin bo‘lgan yer bo‘lagini ham aytishgan. Ye.E. Bertelsni izohlashicha turli davrlarda jeribni miqdori turlicha belgilangan - (100 dan 200 m.ga qadar) teng bo‘lganligi manbalarda va “Vaqfiya”da aytib o‘tilgan. E’tiborli jihati shundaki, mutafakkir o‘ziga tegishli bo‘lgan hamma mol-mulk, yerlarini vaqfga beradi. Faqat bir oddiy odam yeyish-ichishi va kiyishi darajasidagisini o‘z ehtiyoji uchun qoldiradi [8:255-256].

“Vaqfiya”da tayin etilgan vazifalar va ularga tayinlangan maosh hamda don-dun miqdori aniq ko‘rsatilgan. Masalan, ikki mudarris, ularning har biriga o‘n bittadan tolibi ilm bo‘lishi kerak bo‘lgan. Mudarrislarga yiliga 1200 oltin (tanga) naqd pul, 24 yuk (ayrim manbalarda xarvor ham deyilib, bir eshakka yuk bo‘ladigan darajadagi og‘irlikdagi yuk, taxminan 80-120 kg atrofida) oshlig‘ (arpa, bug‘doy) berilishi belgilangan. Navoiy talabalarni o‘zlashtirish darajasi bo‘yicha 3 toifaga bo‘lgan:

- a’loga o‘qiydigan talabalarga oyiga 24 oltin naqd 5 yuk oshlig‘;
- o‘rtaga o‘zlashtiradigan talabalarga oyiga 16 oltin naqd, 4 yuk bug‘doy;
- past o‘zlashtiruvchi talabalarga 12 oltin pul va 3 yuk oshlig‘ berilgan [8:260-69].

“Yana shart ulkim, har o‘ttuz yilda mutavalli “Vaqfiya”ni muqarrar yangi bitgan va asl bila muqobila qilg‘ondin so‘ngra quzot sijillot bila muqobala qilg‘ay to ayyom mururi bila churumagay. Yana shart ulkim, hech zamonda sadr gumashtalari va mutavallilar bu sarkorda madxal qilmag‘aylar. Modomiki, sharti voqif bila muvofiq amal qilg‘aylar - bu sarkor amalasidin jam’ va xarj nusxasi tilamagaylar va hech nav’ nima alardin olmag‘aylarkim, alarg‘a halol va muboh emas” [8:256].

Islom dini va ajdodlarimizning insonparvarlik tamoyillariga asoslangan vaqf tizimini yo‘lga qo‘yish va amaliyotga keng qo‘llanishini O‘zbekiston Prezidentining Farmoni misolida ko‘rishimiz mumkin.

“Vaqf” xayriya jamoat fondi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi «Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5416-son Farmoniga[9:i] muvofiq tashkil etilgan bo‘lib u o‘z oldiga masjidlar va diniy ta’lim muassasalarining binolarini qurish, ta’mir, rekonstruksiya qilish, diniy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, tadqiqotchilari, mutaxassislari va o‘quvchi-talabalarini moddiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, shu jumladan, imkoniyati cheklangan shaxslarni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash kabi bir qator ishlarni maqsad qilib qo‘ygan[10:i].

“Saddi Iskandariy”ning XIX bobida: “Soliq yozuvchi amaldor, xalqqa sitam qilsa, soliq yozuvchi qo‘lini qalamdek qalam qilsin (tilsin, kesilsin. Agar soliqchi o‘zining qiyshiq qalami, ya’ni, buzuvchi nafs bilan soliqni oshirib yozgan, shu orqali elga sitam qilgan bo‘lsa, uni qo‘li ham qalamdek kesilsin)” [12:106].

“Saddi Iskandariy”ning XXXI bobida: “Agar Doro ikkidan birini berib, uning ham yarmini xalqdan undirib kelgan bo‘lsa, biz buni (maoshni) ikki baravar oshiramiz. Xazinadan ikki hissadan maosh bering, dedi. Shunday qilib, el ranjdan qutuldi. Hamma xazinadan maoshini oldi, shoh o‘ziga

tobelarni shunday rozi qildi”[12:208-209], degan fikrlarni o‘qiydiz. Zero, Iskandar, Navoiyning orzusidagi hukmdor obrazi edi.

Xulosa. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Navoiy o‘z asarlarida ko‘tarilgan teran falsafiy qarashlar tizimida, amaliy faoliyatida esa, temuriy shohlarni, shahzodalarni adolatga, qonunchilikka rioya yetishga Qur’oni karim, hadislar, fiqh ilmi, “Temur tuzuklari” va “Zafarnoma” kabi manbalarni o‘qib, ular saboqlaridan o‘z faoliyatlarida xolis adolatli foydalanishga chaqiradi.

– shohning o‘zi shariat talablariga amal qilishi va boshqalardan ham shuni qat’iy talab etishi lozim;

– raiyatning ahvolidan doimo xabardor bo‘lib turish, adolat istab kelganlarning arzini muntazam ravishda eshitib, zolimlarni jazolash, shoh va fuqaro orasida o‘zaro ishonch va muhabbatni qaror toptirish;

– devonda ish yuritishni qat’iy intizom asosida yo‘lga qo‘yish, tamagirlik, poraxo‘rlik, sustkashlikka yo‘l qo‘ymaslik.

Bu holni mustaqil O‘zbekistondagi qonun ustuvorligi, qonunlarga hammaning birdek amal qilishi, uning asosi bo‘lgan Konstitutsiya va qonunlarni mukammallashtirish, sud-huquq sohasini izchil isloh qilish ustuvor siyosat darajasiga qo‘yildi. Hozirgi bosqichdagi islohotlar jarayonida aynan shu adolat tamoyilini amaliyotda ta’minlash nazarda tutilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Навоий Алишер. Муншаот. МАТ. 20 жилдлик. -Тошкент: ФАН, 1998. 14 жилд. -188 б.
2. Навоий. А. Махбуб ул-кулуб. МАТ: 20 томлик. 14 т. Т.: “Фан”, 1998. 34 б.
3. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. –Тошкент: ФАН, 1983. Т.I. –505 б.
4. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. – Тошкент, Ўзбекистон Миллий Энциклопедия ДИИ. “Вақф” мақоласи. - 79 б.
5. Ислом (справочник) М.А.Усмонов таҳрири остида. –Тошкент., 1989. -79 б. “Вақф” мақоласи.
6. Иззат Султон. Навоийнинг қалб дафтари. Т.: Ғ. Ғулом, 1973. 233-239 б.
7. Ўзбек адабиёти тарихи (IV томлик) II том -Тошкент, 1977. -402-403 б.
8. Навоий Алишер. Вақфия. МАТ. (20 томлик) -Тошкент, 1998 14 том -Б. 255-256.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Диний-маърифий соҳа фаолиятини тубдан такомиллаштириш” Тўғрисида 2018 йил 16 апрелдаги ПФ-5416-сон Фармони. <https://lex.uz/docs/3686277>
10. “Вақф” хайрия жамоат фонди ташкил қилинди <http://www.vaqf.uz/uz>
11. <http://muslim.uz/index.php/yangiliklar-2016/uzbekistan/item/7487-va-f-khajriya-zhamoat-fondi-tashkil-ilindi>
12. Алишер Навоий. МАТ: 20 томлик. 11 т. Садди Искандарий . Т.: “Фан”, 1993. 106 б.
13. Сирожиддинов.Ш. Алишер Навоий: манбаларнинг қиёсий-типология, текстология таҳлили. Тошкент: Akademnashr, 2011. -326 б.
14. Бобур Захириддин Мухаммад. Бобурнома. –Тошкент: Юлдузча, 1989.

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000